

SUN'IY INTELLEKTNING ZAMONAVIY DIPLOMATIYADAGI O'RNI

Ziyodillayeva Shirin Muxtor qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro munosabatlar fakulteti 1-bosqich talabasi
shirinziyodullayeva977@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun`iy intellektning globallashib borayotgan zamondagi xalqaro munosabatlardagi diplomatik roli va ahamiyati tahlil qilinadi. Sun`iy intellektning rivojlanish bosqichlari, zamonaviy davrdagi diplomatik aloqalar hamda raqamli diplomatiya atroflicha o`rganilib tadqiq etiladi. Xususan, sun`iy intellektning xalqaro maydonda ham siyosiy ma`noga ega bo`lib boshlashining bir qancha afzallik va kamchiliklari mavjud bo`lib, tahlil jarayonida ularning kelajak diplomatiyasiga ham ta`siri bo`yicha taxminlarni ham keltirib o`tish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, sun`iy intellektning tobora rivojlanib borishi uning ahamiyatini oshirsa ham, Asha Xemrajani va Rik Tan kabi olimlarning tadqiqotlari ham shuni ko`rsatadiki, diplomatiyaning asosi-insoniy aloqalardadir.

**Kalit so`zlar:** sun`iy intellekt, diplomatiya, raqamli diplomatiya, tashqi siyosat, xalqaro munosabatlar, zamonaviy davr, kiberxavsizlik.

Abstract. This article analyzes the diplomatic role and significance of artificial intelligence in international relations in an increasingly globalized world. It examines the stages of artificial intelligence development, contemporary diplomatic relations, and the concept of digital diplomacy. In particular, the study explores both the advantages and disadvantages of the growing political significance of artificial intelligence in the international arena. It is also considered appropriate to present predictions regarding its potential impact on the future of diplomacy. Furthermore, although the continuous advancement of artificial intelligence enhances its importance, the studies conducted by scholars such as Asha Hemrajani and Rick Tan indicate that the foundation of diplomacy still lies in human relationships.

Keywords: artificial intelligence, diplomacy, digital diplomacy, foreign policy, international relations, the contemporary era, cybersecurity.

Аннотация. В данной статье анализируются дипломатическая роль и значение искусственного интеллекта в международных отношениях в условиях глобализирующегося мира. Исследуются этапы развития искусственного интеллекта, особенности современных дипломатических отношений, а также явление цифровой дипломатии. В частности, рассматриваются преимущества и недостатки того, что искусственный интеллект начинает приобретать политическое значение на международной арене. В ходе анализа также представляется целесообразным привести прогнозы относительно его возможного влияния на дипломатию будущего. Кроме того, несмотря на то, что стремительное развитие искусственного интеллекта повышает его значимость, исследования таких учёных, как Аша Хемраджани и Рик Тан, показывают, что основой дипломатии по-прежнему остаются человеческие взаимоотношения.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, дипломатия, цифровая дипломатия, внешняя политика, международные отношения, современная эпоха, кибербезопасность.*

KIRISH

Global davrda raqamli texnologiyalar kun sayin rivojlanmoqda, shu boisdan sun'iy intellekt davlat boshqaruvi va tashqi siyosatga kirib borib, muhim o'rinlardan birini egallamoqda. Negaki xalqaro maydondagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy yangilik va o'zgarishlar diplomatik sohada ham bir qancha raqamli vositalarga ehtiyoj tug'dirmoqda. Sun'iy intellekt esa zamonaviy hamda ko'plab qulayliklar yaratuvchi omillardan biri hisoblanib, uning rivojlanish bosqichlarini atroflicha o'rganib, imkoniyat va xavf-xatarlarni aniqlash bugungi xalqaro munosabatlardagi o'rnini chuqur tahlil etishda yordam beradi. Bundan tashqari, diplomatik soha ham an'anaviy shakldan zamonaviy usulga o'tgandan so'ng joriy yillardagi texnologik yutuqlar sababli raqamli diplomatiya bo'yicha tashqi aloqalar olib borilmoqda. Jumladan, mazkur jarayonlar bir qancha muhim bosqichlarni ham o'z ichiga olgan bo'lib, ularni tadqiq etish orqali kelgusi davr diplomatiyasi bo'yicha ham bir qancha taxmin va mulohazalarni ham ta'kidlab o'tish lozim. Biroq diplomatiya- bu oqilona muzokaralar olib borish hamda xalqaro muammolarga muqobil usulda yechim topish san'ati hisoblanib, inson omilisiz bunday jarayonni amalga oshirish mushkuldir, shuning uchun texnologiya yildan yilga rivojlanib borsa ham, siyosatni shaxslar aralashuvisiz yuritib bo'lmaydi.

Sun'iy intellekt -bu kompyuter va dasturlaning inson aqli singari fikrlashi, o'rganishi, muammolarni hal qilishi va qaror qabul qilishiga qaratilgan texnologiya. Sun'iy intellektning rivojlanish tarixi esa insoniyatning ilm-fan va texnologiya sohasidagi eng muhim yutuqlaridan biri hisoblanadi. Dastlab faqat afsona va badiiy asarlarda uchragan sun'iy aqli mavjudotlar haqidagi g'oyalar XX asrga kelib ilmiy asosga ega bo'la boshladi. Alan Tyuring tomonidan ilgari surilgan "Tyuring testi" va 1956-yilda o'tkazilgan Dartmut konferensiyasi sun'iy intellektning mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi.¹Xususan, rivojlanish jarayonida sun'iy intellekt turli qiyinchiliklar va moliyaviy inqirozlarni boshdan kechirgan bo'lsa-da, ekspert tizimlar, neyron tarmoqlar va mashinaviy o'rganish texnologiyalarining paydo bo'lishi ushbu sohaning qayta tiklanishiga xizmat qildi. Bugungi kunda sun'iy intellekt sog'liqni saqlash, ta'lim, biznes va diplomatiya kabi ko'plab sohalarda keng qo'llanilib, insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Diplomatiya-bu davlatlar o'rtasida muzokaralar olib borish, tashqi siyosatda davlatlarning o'z maqsadlarini amalga oshirish, xalqaro maydonda esa mamlakat va fuqarolar manfaatlarini himoya qilish faoliyatidir. Diplomatik evolyutsiya jarayoni esa shuni ko'rsatadiki, xalqaro munosabatlarni boshqarish usullari hech qachon o'zgarmas bo'lib qolmagan, aksincha, ular siyosiy tuzumlar, texnologik taraqqiyot va jamiyat ehtiyojlari ta'sirida muntazam ravishda takomillashib borgan.²Agar avvalgi davrlarda diplomatning

¹ A brief history of AI <https://www.thefusepathway.com>

² 'The evolution of diplomacy and social sciences' by Milan Jazbec <https://jlp.ibupress.com>

asosiy vazifasi hukmdorning xabarini yetkazish va muayyan muzokaralarni olib borish bilan cheklangan bo'lsa, bugungi kunda u davlatning imijini shakllantiruvchi, jamoatchilik bilan muloqot qiluvchi va axborot makonidagi manfaatlarini himoya qiluvchi strategik aktorga aylandi.

Ayniqsa, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi diplomatiyaning tezkorligi va qamrovini kengaytirib, tashqi siyosatni faqat hukumatlar o'rtasidagi yopiq jarayon emas, balki keng jamoatchilik ishtirok etadigan ochiq muloqot maydoniga aylantirdi. Shu sababli zamonaviy diplomatiyaning samaradorligi nafaqat muzokara olib borish mahoratiga, balki axborotni to'g'ri boshqarish, kiberxavfsizlikni ta'minlash va global tarmoqlarda davlat manfaatlarini ilgari surish qobiliyatiga ham bog'liq bo'lib qolmoqda. Sun'iy intellekt va raqamli diplomatiyaning o'zaro uyg'unlashuvi zamonaviy xalqaro munosabatlarda yangi diplomatik paradigma shakllanayotganini ko'rsatmoqda.

Agar ilgari diplomatlar qaror qabul qilishda asosan inson tajribasi, cheklangan axborot manbalari va an'anaviy muzokara usullariga tayangan bo'lsa, bugungi kunda sun'iy intellekt ularga ulkan hajmdagi ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida tahlil qilish, jamoatchilik kayfiyatini kuzatish, dezinformatsiya kampaniyalarini aniqlash hamda ehtimoliy siyosiy xavf va tendensiyalarni oldindan prognoz qilish imkonini bermoqda. Shu jihatdan, sun'iy intellekt raqamli diplomatiyaning shunchaki texnik vositasi emas, balki uning samaradorligini oshiruvchi strategik omilga aylanib bormoqda.

Biroq bu jarayon diplomatik faoliyatning insoniy jihatlari — ishonch o'rnatish, madaniy sezgirlik va axloqiy mas'uliyat — o'z ahamiyatini yo'qotishini anglatmaydi. Aksincha, kelajak diplomatiyasining muvaffaqiyati sun'iy intellektning tahliliy imkoniyatlarini inson diplomatlarining siyosiy, tajribasi va muzokara olib borish mahorati bilan uyg'unlashtira olish darajasiga bog'liq bo'ladi. Shu tufayli sun'iy intellekt va raqamli diplomatiya o'rtasidagi bog'liqlikni texnologiyaning diplomatiyani almashtirishi emas, balki uni yanada tezkor, ma'lumotlarga asoslangan va murakkab global muammolarga moslashuvchan tizimga aylantiruvchi evolyutsion bosqich sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Mazkur mavzu to'g'risida atroflicha tahlil qilinsa, diplomatik aloqalar ishonch, hamdardlik, o'zaro hurmat va shunga o'xshash insoniy xislatlarga bog'liq ekanligini anglash mumkin. Negaki tashqi siyosatda doim ham barqaror muhit hukm surmaydi, ba'zida o'ta murakkab keskinliklar ham ro'y berishi mumkin. Bunday vaziyatlarda esa sun'iy ong orqali qabul qilingan qarorlar vaziyatni yanada chigallashtirib yuborishi mumkin.

Ushbu fikrning isboti sifatida shuni aytish mumkinki, 1970-yildagi AQSh-Xitoy aloqalari yaxshilanishi Henri Kissenjer va Chjou Enlay o'rtasidagi shaxsiy ishonchga asoslangan edi, hech qanday qurilma yoki algoritm buning uddasidan chiqa olmas edi.³ Qolaversa, bugungi dolzarb zamonda kiber xavfsizlikka to'liq ishonib bo'lmasligi va istalgan vaqtda kiber hujumlar ham uchrab turishini hisobga olgan holda shuni aytish mumkinki, texnologiya tomonidan taqdim etilgan har qanday ma'lumot ham diplomatik talablarga yetarlicha javob bera olmaydi.

³ "The role of AI in modern diplomacy" by Asha Hemrajani and Rick Tan <https://rsis.edu.sg>

Shu boisdan ham raqamli diplomatiyaning rivojlanishi faqatgina ijobiy natijalarga sabab bo'ladi, deb aytish qiyin, uning o'ziga yarasha kamchiliklari ham uchrab turadi.

Zamonaviy diplomatiyada sun'iy intellektdan foydalanish qaror qabul qilish jarayonlarining samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Xususan, SI tizimlari millionlab diplomatik va strategik hujjatlarni bir necha soniya ichida tahlil qilib, inson uchun murakkab bo'lgan ma'lumotlar orasidan muhim tendensiyalarni aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, BlueDot, DeepMind va NASA kabi tizimlar yordamida pandemiyalar yoki ekologik inqirozlar kabi global xavflarni oldindan prognoz qilish tajribasi sun'iy intellektning strategik bashoratdagi ahamiyatini namoyon etmoqda.⁴ Diplomatik muzokaralarda esa algoritmik modellashtirish vositalari turli ssenariylarning ehtimoliy natijalarini hisoblab, muzokarachilarga eng maqbul strategiyani tanlashda ko'maklashadi. Biroq ushbu texnologiyalarning samaradorligiga qaramay, algoritmning qarorga qanday kelganini izohlashdagi qiyinchiliklar, ma'lumotlardagi tarafkashlik tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan siyosiy xatolar hamda noto'g'ri tavsiyalar uchun javobgarlik masalasining ochiq qolayotgani ularni nazoratsiz qo'llash mumkin emasligini ko'rsatadi. Shuning uchun sun'iy intellektni inson diplomatni almashtiruvchi vosita emas, balki uning tahliliy imkoniyatlarini kuchaytiruvchi maslahatchi sifatida qo'llash, asosiy siyosiy qarorlarni esa inson tomonidan qabul qilish eng maqbul yondashuv hisoblanadi.



Sun'iy intellektning zamonaviy diplomatiyadagi o'rni tobora ortib borayotgan bir davrda ushbu texnologiyaning xalqaro munosabatlar tizimiga integratsiyasi bo'yicha muzokaralar ham jadallashib bormoqda. Bugungi kunda davlatlar sun'iy intellektdan tashqi siyosiy tahlillarni amalga oshirish, strategik prognozlar tayyorlash, muzokaralar jarayonini optimallashtirish hamda diplomatik faoliyat samaradorligini oshirish vositasi sifatida foydalanish istiqbollarini muhokama qilmoqdalar. Shu bilan birga, algoritmik xatoliklar, axborot xavfsizligi, ma'lumotlar maxfiyiligi va texnologik tengsizlik kabi xavflarni bartaraf etish masalalari ham xalqaro kun tartibining muhim qismiga aylanmoqda. Bunga misol sifatida 2025-yil 2-may kuni Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida "Xalqaro diplomatiyada sun'iy intellekt: tendensiyalar va muammolar" mavzusida o'tkazilgan xalqaro

⁴ 'Sun'iy intellekt diplomatiyaga kerakmi?' Xabibullayev Bobomirzo <https://esiconf.org>

ilmiy-amaliy konferensiya keltirish mumkin.⁵ Markaziy Osiyo sun'iy intellekt assotsiatsiyasi (AICA) bilan hamkorlikda tashkil etilgan mazkur anjumanda sun'iy intellektni xalqaro munosabatlar, tashqi siyosat strategiyasi va diplomatik amaliyotga joriy etishning imkoniyatlari hamda ehtimoliy xavflari keng muhokama qilindi. Xususan, o'zbek tilidagi innovatsion yechimlarni ishlab chiqish, sun'iy intellekt vositalarini turli kasbiy sohalarga tatbiq etish, davlat organlari va texnologik hamjamiyat o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ilgari surildi. Konferensiya yakunida JIDU hamda Markaziy Osiyo sun'iy intellekt assotsiatsiyasi o'rtasida Anglashuv Memorandumining imzolanishi O'zbekistonning diplomatik amaliyotiga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish va global raqamli diplomatiya jarayonlaridagi ishtirokini mustahkamlash yo'lidagi muhim qadam sifatida baholandi. Raqamli diplomatiyaning kelajagi xalqaro munosabatlarda tobora strategik ahamiyat kasb etayotgan texnologiyalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib bormoqda. Bugungi geosiyosiy vaziyat, xususan Rossiyaning Ukrainaga qarshi keng ko'lamli urushi fonida, raqamli makon nafaqat axborot almashinuvi vositasi, balki davlatlar o'rtasidagi ta'sir kurashining muhim maydoniga aylandi. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), kiberxavfsizlik va raqamli platformalar xalqaro siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli kelajakda raqamli diplomatiyaning asosiy vazifalaridan biri dezinformatsiyaga qarshi kurashish, saylov jarayonlariga tashqi aralashuvlarning oldini olish hamda davlatlarning raqamli suverenitetini himoya qilishdan iborat bo'ladi. Yevropa Ittifoqining bu boradagi yondashuvi ham e'tiborga loyiqdir. Masalan, 2022–2025-yillarda qabul qilingan tashabbuslar orqali YI raqamli masalalarni texnik soha doirasidan chiqarib, tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirdi⁶. Xususan, "Team Europe" tamoyili asosida a'zo davlatlarning raqamli sohadagi hamkorligini kuchaytirish, muhim va yangi texnologiyalar bo'yicha sherikliklarni rivojlantirish, global raqamli tafovutlarni qisqartirish hamda inson huquqlariga asoslangan raqamli boshqaruv qoidalarini ilgari surish maqsad qilib qo'yildi. 2025-yilda qabul qilingan Yevropa Ittifoqining Xalqaro raqamli strategiyasi esa kelajak diplomatiyasi faqat siyosiy muzokaralar bilan cheklanib qolmasdan, texnologik standartlar, ma'lumotlar boshqaruvi va global raqamli qoidalarini shakllantirish uchun kurash maydoniga aylanishini ko'rsatadi.⁷ Demak, kelgusida raqamli diplomatiya davlatlarning xalqaro nufuzini belgilovchi, xavfsizlikni ta'minlovchi va adolatli hamda inklyuziv raqamli tartibotni yaratishga xizmat qiluvchi muhim diplomatik instrument sifatida yanada kuchayib boradi.

Xulosa

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, olib borilgan tahlillar sun'iy intellektning zamonaviy diplomatiyada tobora muhim o'rin egallab borayotganini ko'rsatdi.

U katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish, ehtimoliy xavf va tendensiyalarni prognozlash hamda diplomatik faoliyat samaradorligini oshirishda keng imkoniyatlar yaratmoqda.

⁵ JIDUda sun'iy intellektning xalqaro diplomatiyadagi o'rni bo'yicha o'tkazilgan muzokaralar <https://www.uwed.uz>

⁶ The Diplomatic Service of European Union <https://www.eeas.europa.eu>

Tadqiqot davomida keltirilgan BlueDot va DeepMind kabi amaliy misollar sun'iy intellektning strategik bashorat va qaror qabul qilish jarayonlaridagi salohiyatini tasdiqladi.

Shu bilan birga, algoritmik tarafkashlik, kiberxavfsizlik tahdidlari va texnologik qaramlik kabi omillar ushbu vositalardan foydalanishda ehtiyotkorlik zarurligini ko'rsatdi.

Biroq tadqiqot davomida ko'rib chiqilgan tarixiy tajribalar va zamonaviy misollar diplomatik munosabatlarda ishonch, siyosiy sezgirlik, muzokara olib borish mahorati va mas'uliyat kabi insoniy omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ham namoyon etdi.

Xususan, Henri Kissenjer va Chjou Enlay o'rtasidagi o'zaro ishonchga asoslangan diplomatik muloqot bunday aloqalarni hech qanday algoritm to'liq takrorlay olmasligini ko'rsatadi. Shu bois sun'iy intellektni diplomatiyaning kelajagini belgilovchi muhim vosita sifatida baholash mumkin, ammo u inson diplomatni to'liq almashtira olmaydi.

Aksincha, kelajak diplomatiyasining muvaffaqiyati texnologik imkoniyatlardan oqilona foydalanish hamda ularni inson tafakkuri, tajribasi va axloqiy mas'uliyati bilan uyg'unlashtira olishga bog'liq bo'ladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR RO'YXATI:

1. A brief history of AI <https://www.thefusepathway.com>
2. 'The evolution of diplomacy and social sciences' by Milan Jazbec <https://jlp.ibupress.com>
3. 'The role of AI in modern diplomacy' by Asha Hemrajani and Rick Tan <https://rsis.edu.sg>
4. 'Sun'iy intellekt diplomatiyaga kerakmi?' Xabibullayev Bobomirzo <https://esiconf.org>
5. JIDUda sun'iy intellektning xalqaro diplomatiyadagi o'рни bo'yicha o'tkazilgan muzokaralar <https://www.uwed.uz>
6. The Diplomatic Service of European Union <https://www.eeas.europa.eu>